



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТИНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5



YUSUPOVA Faringiz O'ktam qizi

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: Faringiz002@gmail.com

ORCID: 0000-0002-8202-2160

SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARIDA TIBBIY MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY VA ETIK ASOSLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): YUSUPOVA F.O'. Sun'iy intellekt tizimlarida tibbiy ma'lumotlardan foydalanishning huquqiy va etik asoslari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 5 (2024) B. 98-104.



5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari jadal rivojlanishi jarayonida sog'liqni saqlash tizimida tibbiy ma'lumotlardan foydalanishning huquqiy va etik asoslarini tahlil qiladi. Maqolada SI texnologiyalarining tibbiyot sohasiga kirib kelishi natijasida yuzaga kelayotgan yangi turdagi huquqiy munosabatlar, ma'lumotlar xavfsizligi va inson huquqlariga ta'siri chuqur o'rganilgan.

Sun'iy intellekt sog'liqni saqlashda kasalliklarni erta aniqlash, klinik qarorlarni qo'llab-quvvatlash, epidemiologik tahlil va davolash rejasini avtomatlashtirishda keng qo'llanilmoqda. Biroq tibbiy ma'lumotlardan keng miqyosda foydalanish shaxsiy hayot daxlsizligi, ma'lumotlarni qayta ishlashning qonuniyligi, bemor roziligi va algoritmik xatoliklar kabi yangi muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Shu sababli maqolada tibbiy axborotlar bilan ishlovchi sun'iy intellekt tizimlarining huquqiy tartibga solish mexanizmlari, etik tamoyillari va xalqaro tajribasi qiyosiy-huquqiy nuqtai nazardan yoritilgan.

Tadqiqotda xalqaro va milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, Yevropa Ittifoqining Ma'lumotlarni himoya qilish umumiy reglamenti (GDPR), AQShning Sog'liqni saqlash sug'urtasi va hisobdorligi to'g'risidagi qonuni (HIPAA) shuningdek BMT Bosh Assambleyasining "Raqamli asrda shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi" to'g'risidagi rezolyutsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi va "Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida"gi qonunlari tahlil qilinadi.

Muallif tomonidan bemorlarning ongli roziligi, ma'lumotlarning maxfiyligi, algoritmik shaffoflik va diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik prinsiplari sun'iy intellekt tizimlari uchun markaziy axloqiy tamoyillar sifatida baholanadi. Maqolada, shuningdek, SI tizimlarida tibbiy ma'lumotlardan foydalanish jarayonida huquqiy javobgarlikni aniqlash, axborot xavfsizligini ta'minlash, shifokor va dasturchilarning mas'uliyati, algoritmik audit tizimlarini joriy etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, tibbiy ma'lumotlar, huquqiy asoslar, etik tamoyillar, shaxsiy hayot daxlsizligi, ma'lumotlarni himoya qilish, xalqaro standartlar, tibbiy ma'lumotlar xavfsizligi, algoritmik shaffoflik.

ЮСУПОВА Фарингиз Уктамовна

И. о. доцента Института переподготовки и повышения
квалификации юридических кадров при
Министерстве юстиции Республики Узбекистан,
доктор философии (PhD) по юридическим наукам
E-mail: Faringiz002@gmail.com
ORCID: 0000-0002-8202-2160

ПРАВОВЫЕ И ЭТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ В СИСТЕМАХ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена анализу правовых и этических основ использования медицинских данных в системах искусственного интеллекта (ИИ) в условиях стремительного развития цифровых технологий в сфере здравоохранения. В работе исследуются новые виды правовых отношений, возникающие в результате внедрения ИИ в медицину, а также вопросы информационной безопасности и влияния на права человека.

Искусственный интеллект широко применяется в здравоохранении для ранней диагностики заболеваний, поддержки клинических решений, эпидемиологического анализа и автоматизации лечебных процессов. Однако масштабное использование медицинских данных порождает новые проблемы, связанные с неприкосновенностью частной жизни, законностью обработки информации, добровольным согласием пациентов и рисками алгоритмических ошибок. В этой связи в статье рассматриваются механизмы правового регулирования, этические принципы и международный опыт обращения с медицинской информацией в системах искусственного интеллекта на основе сравнительно-правового анализа.

В исследовании анализируются международные и национальные нормативно-правовые акты, включая Общий регламент ЕС о защите данных (GDPR), Закон США о переносимости и подотчётности медицинского страхования (HIPAA), а также резолюция Генеральной Ассамблеи ООН "О праве на неприкосновенность частной жизни в цифровую эпоху" (2013) и законы Республики Узбекистан "О персональных данных" и "Об охране здоровья граждан".

Автор рассматривает принципы осознанного согласия пациента, конфиденциальности данных, прозрачности алгоритмов и недопущения дискриминации как ключевые этические основы функционирования систем искусственного интеллекта. Кроме того, в статье затрагиваются вопросы определения юридической ответственности, обеспечения информационной безопасности, ответственности медицинских работников и разработчиков, а также внедрения систем алгоритмического аудита в сфере медицинского ИИ.

Ключевые слова: искусственный интеллект, медицинские данные, правовые основы, этические принципы, неприкосновенность частной жизни, защита данных, международные стандарты, безопасность медицинской информации, алгоритмическая прозрачность.

FARINGIZ Yusupova Uktamovna

Acting Associate Professor of The Institute for
Retraining and Advanced Training of Legal
Personnel under the Ministry of Justice
of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law
E-mail: Faringiz002@gmail.com

LEGAL AND ETHICAL FOUNDATIONS FOR THE USE OF MEDICAL DATA IN ARTIFICIAL INTELLIGENCE SYSTEMS

ANNOTATION

This article analyzes the legal and ethical foundations of using medical data within artificial intelligence (AI) systems amid the rapid development of digital technologies in the healthcare sector. It explores new forms of legal relationships emerging from the integration of AI into medicine, along with issues of data security and human rights protection.

Artificial intelligence is increasingly utilized in healthcare for early disease detection, clinical decision support, epidemiological analysis, and automation of treatment planning. However, the large-scale use of medical data gives rise to complex challenges related to privacy protection, lawfulness of data processing, patients' informed consent, and algorithmic error risks. Therefore, the article examines legal regulation mechanisms, ethical principles, and international experience in handling medical information in AI-based systems from a comparative legal perspective.

The research analyzes both international and national regulatory frameworks, including the European Union's General Data Protection Regulation (GDPR), the U.S. Health Insurance Portability and Accountability Act (HIPAA), the Oviedo Convention, as well as the United Nations General Assembly Resolution "The Right to Privacy in the Digital Age" (2013) and the Laws of the Republic of Uzbekistan "On Personal Data" and "On the Protection of Citizens' Health."

The author identifies patients' informed consent, data confidentiality, algorithmic transparency, and non-discrimination as central ethical principles for the responsible use of AI systems. The article also discusses issues of legal liability, information security, the shared responsibility of healthcare professionals and AI developers, and the introduction of algorithmic audit systems to ensure the safety and accountability of medical AI applications.

Keywords: artificial intelligence; medical data; legal foundations; ethical principles; privacy; data protection; international standards; medical data security; algorithmic transparency.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari tibbiyot sohasida katta yutuqlarga erishdi. Diagnostika, davolash rejasini tuzish, epidemiologik prognozlash va klinik qararlarni qo'llab-quvvatlashda SI tizimlari samarali vosita sifatida qo'llanilmoqda. Biroq tibbiy ma'lumotlardan keng ko'lamda foydalanish shaxsiy hayot daxlsizligi, ma'lumotlar xavfsizligi va bemor huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq murakkab huquqiy hamda etik masalalarni yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasida "har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega" deb belgilangan bo'lib, bu norma sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar va ularga oid ma'lumotlarning huquqiy muhofazasi zarurligini asoslab beradi. Tibbiy xizmatlar sifati bevosita bemor haqidagi aniq, ishonchli va maxfiy ma'lumotlar bilan ishlashga bog'liq bo'lganligi sababli, ushbu ma'lumotlarni aniqlashtirish va ularni huquqiy jihatdan tartibga solish ilmiy-amaliy dolzarblik kasb etmoqda[1].

Sun'iy intellekt tizimlarida tibbiy ma'lumotlardan foydalanish jarayoni xalqaro, milliy va korporativ me'yorlar uyg'unligini talab qiladi. Shu sababli, mazkur maqolada ushbu sohadagi asosiy huquqiy me'yorlar va etik tamoyillar tahlil qilinadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining sog'liqni saqlash sohasida keng joriy etilishi tibbiy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va uzatish jarayonini tubdan o'zgartirdi. Shu bilan birga, bu jarayon tibbiy axborotlarning maxfiyligi, xavfsizligi va ularning huquqiy muhofazasiga oid dolzarb masalalarni yuzaga chiqarmoqda. Mazkur muammolarni hal etishda tibbiy ma'lumotlar tushunchasi, ularning turlari va huquqiy tabiati bo'yicha nazariy asoslarni puxta o'rganish muhim ahamiyatga ega [2].

Olimlarning fikricha, milliy qonunchilikni xalqaro me'yorlarga moslashtirish orqali tibbiy axborot ustidan nazoratni kuchaytirish va bemorlarning huquqlarini kafolatlash imkoniyati ortadi. Masalan, nemis huquqshunosi T. Klement sog'liqni saqlash tizimida transchegaraviy axborot almashinuvini huquqiy jihatdan tartibga solish, maxfiylikni ta'minlovchi standartlarni xalqaro darajada uyg'unlashtirish ayniqsa sun'iy intellekt qo'llanayotgan holatlarda zarur deydi [3].

Shuningdek, fransuz olimi M. Mernak rivojlanayotgan davlatlar milliy qonunchiligini GDPR tajribasiga tayangan holda xalqaro huquqiy tamoyillarga moslashtirish zarurligini, bu axborot huquqiy madaniyatini shakllantirishda muhim omil bo'lishini ta'kidlaydi [4].

Britaniyalik professor D. Erdos raqamli sog'liqni saqlash tizimlarida axborot xavfsizligi nafaqat texnik vositalar orqali, balki mustahkam huquqiy nazorat organlari faoliyati bilan ham qo'llab-quvvatlanmog'i lozimligini bildiradi. U yirik texnologik kompaniyalar bilan sog'liqni saqlash tashkilotlari o'rtasidagi ma'lumot almashinuvining huquqiy chegaralarini aniq belgilashni xalqaro huquq uchun strategik vazifa sifatida baholaydi [5]. Tibbiy ma'lumotlarning xavfsizligini xalqaro darajada tartibga solish dolzarb va ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu sohada xalqaro huquq normalarining shakllanishi va rivojlanishi muayyan tarixiy bosqichlardan o'tgan.

2013-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti "Raqamli asrda shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi"ga bag'ishlangan 69/166-sonli rezolyutsiyani qabul qildi. Ushbu hujjatda zamonaviy texnologik taraqqiyotning yuqori sur'atlari dunyoning barcha mintaqalaridagi insonlarga yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkonini berishi bilan birga, hukumatlar, korporatsiyalar va jismoniy shaxslarning ma'lumotlarni kuzatish, ushlash va yig'ish imkoniyatlarini kengaytirishi qayd etilgan. Bunday jarayonlar inson huquqlariga, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 17-moddasida mustahkamlangan shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga tahdid solishi mumkinligi ta'kidlangan. Shu bois, mazkur masala xalqaro hamjamiyatda tobora ortib borayotgan tashvish uyg'otayotgani e'tirof etilgan [6] [7].

Rezolyutsiyada shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi yana bir bor tasdiqlanib, hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga, yashash joyiga yoki yozishmalari siriga noqonuniy yoki asossiz aralashishga yo'l qo'yilmasligi kerakligi, shuningdek, bunday aralashuvdan qonuniy himoya huquqi ta'minlanishi zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu huquqni ta'minlash erkin fikr bildirish va uni erkin ifoda etish imkonini beruvchi asosiy omillardan biri sifatida demokratik jamiyat poydevoriga tenglashtirilgan [8].

Shuningdek, hujjatda axborot izlash, olish va tarqatish erkinligi, axborotga erkin kirish va demokratik jarayonda ishtirok etishning muhimligi alohida urg'u bilan qayd etilgan. BMT Inson huquqlari bo'yicha Kengashining yig'ilishida taqdim etilgan Maxsus ma'ruzachining hisoboti ijobiy baholanib, davlatlar tomonidan aloqa vositalarini kuzatish amaliyotining shaxsiy hayot daxlsizligi hamda fikr bildirish erkinligi huquqlariga ta'siri bo'yicha xulosalar e'tiborga olingan [9].

Rezolyutsiya noqonuniy yoki asossiz ravishda aloqa vositalarini kuzatish, ularni ushlash yoki shaxsiy ma'lumotlarni, ayniqsa, keng ko'lamda yig'ish kabi amaliyotlar shaxsiy hayot daxlsizligi va fikr bildirish erkinligini buzishi, shuningdek, demokratik jamiyatning asosiy tamoyillariga zid kelishi mumkinligini keskin ta'kidlagan. Shu bilan birga, jamoat xavfsizligi nuqtayi nazaridan ayrim

maxfiy ma'lumotlarni yig'ish va himoya qilish zarur bo'lishi mumkinligi tan olinadi, biroq davlatlar bunday choralarni xalqaro inson huquqlari huquqi bo'yicha o'z majburiyatlariga to'liq muvofiq ravishda amalga oshirishlari shartligi qayd etiladi.

Ushbu tadqiqot sun'iy intellekt texnologiyalarining sog'liqni saqlash sohasidagi huquqiy va etik jihatlarini o'rganishda **tizimli yondashuv**, **qiyosiy-huquqiy tahlil** va **normativ-analitik metodlardan** foydalangan holda amalga oshirildi. Maqolada xalqaro huquq normalari (BMT rezolyutsiyalari, GDPR, Oviedo Konvensiyasi, WHO AI Ethics), milliy qonunchilik hamda amaliyotdagi holatlar o'zaro taqqoslab o'rganiladi.

Hozirgi davrda bo'layotgan o'zgarishlarni inobatga olgan holda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli transformatsiyaning keng miqyosda rivojlanishi sog'liqni saqlash tizimida ham sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ayniqsa, teletibbiyot, elektron tibbiy kartalar, masofaviy monitoring tizimlari, DMED (Digital Medical Data) platformasi kabi innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi natijasida tibbiy ma'lumotlarning to'plash, saqlash, uzatish va qayta ishlash jarayonlari yanada murakkablashmoqda.

XXI asrda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari barcha sohalarga, jumladan tibbiyotga ham jadal kirib kelmoqda. Bu jarayon bir tomondan, diagnostika, davolash va profilaktika sifatini sezilarli oshirish imkonini berayotgan bo'lsa, boshqa tomondan esa, shaxsiy hayot daxlsizligi, tibbiy ma'lumotlar xavfsizligi hamda bemorlarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga doir murakkab huquqiy va etik masalalarni yuzaga chiqarmoqda [10].

Sun'iy intellektning tibbiyotda qo'llanilishi, avvalo, tibbiy tasvirlarni (rentgen, MRT, KT) tahlil qilish, genetik ma'lumotlarni baholash, laboratoriya natijalarini talqin qilish orqali kasalliklarni erta aniqlash imkoniyatini kengaytiradi [11]. Shuningdek, SI texnologiyalari davolash rejasini tuzish, dozalarni optimallashtirish, jarrohlik amaliyotlarini rejalashtirish va bemorlarni masofadan monitoring qilishda ham yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda. Biroq, bu jarayonlarda ishlatiladigan ma'lumotlarning sezgirliги sababli ularning maxfiyligi, yaxlitligi va qonuniy qayta ishlanishi milliy va xalqaro darajada qat'iy huquqiy tartibga solinishi shart [12].

Milliy qonunchiligimizda SI ga insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid qilish imkonini beruvchi (shu jumladan, mustaqil o'rganish va yechimlarni izlash) hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmui sifatida ta'rif berilgan.

Bugungi kunda tadqiqotchilar sun'iy intellekt tushunchasini turlicha talqin qilmoqdalar. Ayrim olimlar uni "inson intellektual faoliyatini modellashtirish masalalarini qamrab olgan ilmiy yo'nalish" deb tushuntirishsa, boshqa tadqiqotchilar "insonga xos bo'lgan ijodiy fikrlash jarayonini texnik jihatdan baholash usuli" deya talqin etadi. Intellektual tizim kompyuterga jamlangan bilimlar bazasi, nazorat qiluvchi, intellektual "interfeys"dan iborat [13].

Olimlar fikricha SI fikriy mulohaza va ijodiy faoliyatning yoki hisoblash mashinalari yordamida qayta qurilishini amalga oshiruvchi axborot texnologiyalari yo'nalishidir [14]. Milliy qonunchiligimizda SI ga insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid qilish imkonini beruvchi (shu jumladan, mustaqil o'rganish va yechim topish) hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati (management) sohasida SI texnologiyalarining keng qo'llanila boshlashiga asosiy sabab sifatida xolislik va tejamkorlikni ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yildagi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 31-moddasida "Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega" [1] deb ta'kidlangan.

Tibbiy ma'lumotlar maxsus toifadagi shaxsiy ma'lumotlar sifatida e'tirof etilib, ular ustidan ishlov berish O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni, "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonuni hamda Konstitutsiyaning 31-moddasi bilan tartibga solinadi. Xalqaro miqyosda esa Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti, AQShning HIPAA qonuni, Oviedo Konvensiyasi kabi hujjatlar ushbu sohada asosiy me'yoriy poydevor vazifasini bajaradi. Ushbu hujjatlar bemorning ongli roziligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, ma'lumotlarni minimal qayta ishlash, ularni uchinchi shaxslarga ruxsatsiz berishni taqiqlash va algoritmik shaffoflik kabi prinsiplarga asoslanadi [15].

Sun'iy intellekt tizimlarida tibbiy ma'lumotlardan foydalanish jarayonida bir qator asosiy etik tamoyillarga qat'iy rioya etilishi talab etiladi. Birinchidan, rozilik prinsipi – bemorning shaxsiy tibbiy ma'lumotlaridan foydalanish faqatgina uning ongli va aniq roziligi asosida amalga oshirilishi lozim. Ikkinchidan, maxfiylik – shaxsni identifikatsiya qiluvchi ma'lumotlar minimal darajada qayta ishlanishi va uchinchi shaxslarga oshkor etilmasligi zarur. Uchinchidan, shaffoflik – algoritmik qarorlar qabul qilish jarayoni tibbiyot xodimlari va bemorlar uchun tushunarli hamda tekshiriladigan bo'lishi kerak. To'rtinchidan, adolatlilik – sun'iy intellekt tizimlari kamsitish (diskriminatsiya) holatlariga yo'l qo'ymasligi hamda noto'g'ri qarorlar ehtimolini kamaytirishi lozim. Beshinchidan, mas'uliyat noto'g'ri yoki zararli qarorlar qabul qilingan taqdirda javobgarlikning aniq mexanizmlari mavjud bo'lishi zarur [16].

Shu bilan birga, ushbu sohada bir qator muammolar ham mavjud. Avvalo, "tibbiy ma'lumotlar" tushunchasi va ularni qayta ishlash tartibining huquqiy jihatdan to'liq ishlab chiqilmaganligi e'tibor talab qiladi. Bundan tashqari, algoritmik shaffoflikni ta'minlash mexanizmlarining yetishmasligi, milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga to'liq mos kelmasligi hamda ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlovchi infratuzilmaning yetarli emasligi asosiy muammolar sirasiga kiradi [17].

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida bir qator **takliflar** ilgari suriladi. Birinchidan, "tibbiy ma'lumotlar" tushunchasini normativ-huquqiy jihatdan aniq belgilash va ularning huquqiy maqomini mustahkamlash zarur. Ikkinchidan, sun'iy intellekt tizimlari uchun majburiy **etik kodeks** ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish lozim. Uchinchidan, tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini oshirish maqsadida blokcheyn, ilg'or shifrlash va anonimlashtirish texnologiyalaridan keng foydalanish lozim. Beshinchidan, fuqarolarning tibbiy ma'lumotlar bo'yicha huquq va majburiyatlari to'g'risida xabardorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ma'rifiy va axborot-tushuntirish ishlari olib borilishi zarur. Ushbu yondashuvlar sun'iy intellekt tizimlarida tibbiy ma'lumotlardan foydalanishda huquqiy aniqlik, etik barqarorlik va texnologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi, shuningdek, fuqarolar ishonchini mustahkamlash hamda sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunida tibbiy ma'lumotlar maxsus toifadagi shaxsiy ma'lumotlar sifatida tilga olinadi, biroq ular bilan sun'iy intellekt tizimlarida ishlash tartibi aniq belgilanmagan. Hozirgi qonunlar faqat umumiy axborot xavfsizligi qoidalarini nazarda tutadi.

Xalqaro tajriba (masalan, Yevropa Ittifoqining GDPR 9-moddasi) shuni ko'rsatadiki, tibbiy axborotni qayta ishlash uchun alohida qonuniy asos (consent, vital interests, public health, research) va nazorat mexanizmlari bo'lishi zarur.

Shu sababli, tibbiy ma'lumotlarni tartibga solish, ular bilan sun'iy intellekt tizimlari orqali ishlash imkoniyatlarini huquqiy jihatdan belgilash maqsadida maxsus normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqish zarur. Mazkur hujjat quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga olishi lozim:

Tibbiy ma'lumotlarning huquqiy maqomini aniqlash – genetik, biometrik, klinik, laboratoriya va raqamli sog'liq ma'lumotlarini alohida toifalarga ajratish hamda ularning qayta ishlanish shartlarini aniq belgilash.

Bemor roziligi va axborot shaffofligini huquqiy mustahkamlash – tibbiy ma'lumotlardan foydalanish faqat bemorning ongli, erkin va yozma roziligi asosida amalga oshirilishini, shuningdek, u o'z ma'lumotlarining qayerda, kim tomonidan va qanday maqsadda ishlatilayotganini bilish huquqiga ega bo'lishini ta'minlash.

Sun'iy intellekt tizimlari uchun etik me'yorlar va xavfsizlik standartlarini joriy etish – algoritmik shaffoflik, diskriminatsiyani oldini olish, inson nazorati va javobgarlik prinsiplari asosida ishlab chiqish.

Axborot xavfsizligi va texnik himoya choralarini belgilash – ma'lumotlarni himoyalashda ilg'or texnologiyalar (shifrlash, anonimlashtirish)ni qo'llash tartibini normativ darajada belgilash.

Javobgarlik mexanizmlarini aniqlashtirish – sun'iy intellekt tizimlari natijasida yuzaga kelgan tibbiy xatoliklar, noto'g'ri diagnostika yoki ma'lumotlar sizib chiqishi holatlarida ishlab chiquvchi, tibbiyot muassasasi va mutaxassis o'rtasida javobgarlikni aniq taqsimlovchi huquqiy mexanizmni yaratish.

Algoritmik audit va sertifikatsiya tizimini joriy etish – tibbiy sun'iy intellekt platformalarining xavfsizlik, aniqlik va etik moslik darajasini mustaqil ekspertizadan o'tkazish tartibini yo'lga qo'yish.

Transchegaraviy axborot almashinuvini tartibga solish – xalqaro ma'lumotlar bazalaridan foydalanish, ma'lumotlarni xorijga uzatish yoki xorijdan olish holatlarida xalqaro standartlarga (GDPR 44–49-moddalari, WHO tavsiyalari) muvofiq bo'lishini ta'minlash.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (Yangi tahrirda). T., 2023 <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Naomi Colvin. "Whistle-Blowing as a Form of Digital Resistance: State Crimes and Crimes Against the State." *State Crime Journal*, vol. 7, no. 1, 2018, P. 41.
3. Carly Nyst. "Secrets and Lies: The Proliferation of State Surveillance Capabilities and the Legislative Secrecy Which Fortifies Them – An Activist's Account." *State Crime Journal*, vol. 7, no. 1, 2018, P. 19.
4. Pozen, David E. "Privacy-Privacy Tradeoffs." *The University of Chicago Law Review*, vol. 83, no. 1, 2016, P. 225.
5. Cohen, Julie E. "What privacy is for." *Harvard Law Review*, vol. 126, no. 7, 2013, P. 1904.
6. Prosser, W. L. (1960). *Privacy*. *California Law Review*, no. 48, pp. 383-423. <http://dx.doi.org/10.2307/3478805>
7. Резолюция, принятая Генеральной Ассамблеей 18 декабря 2013 года 68/167. Право на неприкосновенность личной жизни в цифровой век <https://docs.un.org/ru/A/RES/68/167>
8. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
9. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt <https://lex.uz/docs/-2640479>
10. Директива 95/46/ЕС Европейского парламента и Совета Европейского Союза от 24 октября 1995 года о защите прав частных лиц применительно к обработке персональных данных и о свободном движении таких данных
11. Izzatullaev B. O'zbekistonda elektron hukumat // *Odil sudlov*. – T., 2021. – № 8. – B. 23.
12. Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.08.1996 yildagi 265-I-son <https://lex.uz/ru/docs/-26013?ONDATE2=18.05.2022&action=compare>
13. Shermuhammedova A. Mamlakatimizda ijtimoiy tarmoqlarning shakllanishi, tendensiyalari va xususiyatlari // *Fuqarolik jamiyati*. – T., 2021. – № 2. – B. 25
14. Shojaei, P.; Vlahu-Gjorgievska, E.; Chow, Y.-W. Security and Privacy of Technologies in Health Information Systems: A Systematic Literature Review. *Computers* **2024**, *13*, 41. <https://doi.org/10.3390/computers13020041>
15. Warren SD, Brandeis LD. The right to privacy. *Harv Law Rev*. 1890;4(5):193–22
16. Yusupova F.- Sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning huquqiy jihatlari "*Yurisprudensiya*" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali, 2024-yil 5-son
17. Юсупова Ф. - Медицинские услуги в эпоху цифровой трансформации: правовые аспекты телемедицины Том 4 № 4 (2025): Научный журна «Legalitas» <https://legalitas.semuniver.kz/index.php/main/article/view/143>

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416